

MULTIMODAL MULOQOTNING INTERNET TILSHUNOSLIDAGI O'RNI

Rahimkulova Lobar Hamro qizi

Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası assistent
o'qituvchisi. lobarlobar102@gmail.com

UDK 372.6(021)

<https://orcid.org/0009-0004-6238-322>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18386473>

THE PLACE OF MULTIMODAL COMMUNICATION IN INTERNET LINGUISTICS

Rahimkulova Lobar Hamro qizi

Assistant Professor, Department of
Philology and Language Teaching,
Karshi International University

lobarlobar102@gmail.com

UDC 372.6(021)

<https://orcid.org/0009-0004-6238-322>

Annotatsiya. Multimodal birliklar tarkibiga kiruvchi memlar tilshunoslar tomonidan lingvistik fenomen sifatida taqddiq qilinmoqda. Mem atamasi ilk marotaba biolog Richard Dokinzning "The Selfish Gene (1976)" asarida "madaniy axborot birligi" sifatida qo'llangan. Bugungi kunda mimlar ijtimoiy tarmoqlarda kulguli va tanqidiy xarakterga ega bo'lgan rasmlar, videolar, matnlar, giflar, belgilar va emojilardir. Bu kabi multimodal birliklar til birliklari bilan birgalikda qo'llanilib matn mazmunini kengaytirishga uslubiy va hissiy bo'yog'ini oshirishga xizmat qiladi. Multimodal muloqot birliklari ijtimoiy-ma'daniy ahamiyatga va har bir tilda turlicha uslubiy ma'nolarni ifodlashi mumkin. Multimodal muloqotni o'rganish to'g'ri talqin qilish chet tillarini eshitib, tushunib o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar. Multimodal, memlar, neologizmlar, tilning globalizatsiyasi, verbal muloqot, nonverbal muloqot, ma'daniy kontekst.

Abstract. Memes, which are part of multimodal units, are being studied by linguists as a linguistic phenomenon. The term meme was first used as a "unit of cultural information" in the work of biologist Richard Dawkins "The Selfish Gene (1976)". Today, memes are images, videos, texts, gifs, symbols and emojis that are funny and critical in social networks. Such multimodal units, when used together with language units, serve to expand the content of the text, increasing its stylistic and emotional coloring. Multimodal communication units have socio-cultural significance and can express different stylistic meanings in each language. Learning to correctly interpret multimodal communication forms and strengthens the ability to learn foreign languages by listening to, understanding and speaking.

Keywords. Multimodal, memes, neologisms, globalization of language, verbal communication, nonverbal communication, cultural context.

Kirish. Ijtimoiy tarmoqlarda oxirgi paytlarda yangi so'zlarning boshqa tillardan kirib kelishi bilan bir qatorda yangi so'zlarning yasalişhiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Bu kabi so'zlar internet tiliga xos bo'lgan neologizmlardir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi so'zlarning kirib kelish jarayoni "tilning globalizatsiyasi" deb ataladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda turli tillarga xos bo'lgan so'zlar va multimodal birliklarning aralashuvi internetga tegishli bo'lgan "xalqaro til unsurini yaratdi. Bu til gibrid nomini oldi. Chetdan kirgan so'zlar

mahalliy til ta'sirida yangi talaffuz, yangi ma'no kasb eta boshladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarga xos bo'lgan neologizmlarning shakllanishi:

1. Mahalliy tilga tarjima qilinmasdan o'z ma'nosini saqlagan yoki yangi ma'no kasb etgan holatda boshqa tillarga xos bo'lgan so'zlarning kirishi. Masalan: chat, like, prosmotr, veb, usernime, glavniy, axvot, server, direkt, komment, download, kommentariy, blog, link, insayt, mix (miks);

2. Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar mahalliy til ta'sirida yasalishi. Masalan, chatlashish, soxranit qilish, udalit qilish, download qilish, glavniy rasmlari, geytuz, post qoldirish, content yaratish.

3. Mahalliy tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'noda qo'llanilishi. Masalan, iman, ivan;

4. Mahalliy tilda mavjud bo'lgan so'zlardan turli usullar bilan yangi so'zlar hosil qilish. Masalan, uxtishkalar, iymonlashgani, jurnojalab, IT, muridla, Vikingxonim, o'risboshi, ukrainboshi, imonametr, sharlatanlar, avratqorovullari, islomofoblik, notabiiy¹.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarda blog yuritganda, post joylaganda, forumlar tashkil qilganda, chat yozishmalari va kommentariyalarda fikr bildirganda multimodal muloqot vositalaridan foydalanishda etnik va ma'daniy kontekstiga e'tibor qilgan holatda foydalanilmasa turli salbiy oqibatlariga, ma'muriy va jinoiy javobgarliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida piktogrammadan foydalangan holatda ham til birliklarisiz fikrni ifodalash mumkin. Ammo bu piktogrammalar ham turlicha talqin etilishi mumkin. Bu foydalanuvchilarning millatiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga ham bog'liqdir. Multimodal muloqot vositalari insonning ruhiy holatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan sanaladi.

Tilshunoslar ta'kidlaydilar: onlayn global muloqotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun foydalanuvchi nafaqat til bilimiga, balki semiotika, ma'daniyatshunoslik va kommunikatsiya dizayni bo'yicha ham ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak².

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uslubi o'zini qanday namoyon etishi va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi onlayn muloqotda shaxsiyat deb nomlanadi. Shaxsiyatni foydalanuvchining uslubini, yondashuvini, lingvistik va ekstralingvistik vositalardan, multimodal birliklardan foydalanish mahoratini, profil rasmlari va foydalanuvchi nomi (avatar, login, nik, username, nickname), xabarlarini qabul qilish vaqti shakllantiradi. Onlayn muloqotda shaxsiyat o'zgaruvchan xarakterga ega. Xabarlarining qabul qilinish vaqti ham qabul qiluvchining ruhiy holatini yoki xabar yuboruvchiga bo'lgan munosabati ifodalashga xizmat qilishi bilan bir qatorda yuboruvchining qabul qiluvchiga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatadi. Shaxsiyatni ko'rsatuvchi asosiy vosita bu foydalanuvchining nomi va profil rasmidir. Nom va rasm rasmiy ijtimoiy tarmoqlarda aslidek bo'lishi mumkin, ammo ko'p hollarda foydalanuvchilar kasbi, yoshi, qiziqishlari, xarakteri, ruhiy holatidan kelib chiqib tanlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet foydalanuvchilarining onlayn shaxsiyati masalasi, bu sohani o'rganayotgan ijtimoiy olimlar, psixologlar va tilshunoslar uchun markaziy mavzulardan biridir. Chunki virtual muloqotda inson o'zining "real hayotdagi" (RL – real life) obrazini to'liq yoki qisman o'zgartirishi, hatto butunlay boshqa bir shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin³.

¹ <https://www.facebook.com/share/1EBZBEo6iz/>

² Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 110.

³ Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 70.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari real hayotdagidan farqli ko‘rinishi va o‘z shaxsiyatini o‘zgartirib turishi mumkin. Bu holat mualliflik ekspertizasi jarayonini yanada murakkablashtiradi. Foydalanuvchilarning sahifasi, imzosidagi jargonlar, birikmalar, iqtiboslar ham ularning shaxsiyatini ko‘rsatuvchi vositalardan bo‘lib, shaxsning faoliyati, ruhiyati, qiziqishini ifodalaydi. Ammo shunday foydalanuvchilar ham borki o‘z shaxsiyatini ochiqslamaydi yoki teskari mazmunga ega bo‘lgan multimodal vositalardan foydalanadi. Yana bir toifa foydalanuvchilar rasmiy va norasmiy bo‘lgan bir nechta profillardan, elektron pochталardan foydalanishadi va bu holatlar ham anonimlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi jinoyatlarni keltirib chiqarayotgan holatlar biri boshqa shaxs nomidan profil yoki elektron pochta ochish va undan turli maqsadlarda foydalanish holatlaridir. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lmagan nom va suratlarni qo‘yib anonim tarzda faoliyat yururtuvchi foydalanuvchilar internet va ijtimoiy tarmoqlarda erkin va tanqidiy fikrlash imkoniyatidan unumli foydalanadi. Bu kabi foydalanuvchilar trollar deb ataladi. Ular tanqid, haqorat, obro‘sizlantirish kabi huquqbuzarliklarni sodir etishadi, shuningdek, foydalanuvchilar o‘rtasida nizo keltirib chiqarishga va foydalanuvchilarda agressivlikni oshirishga ham intilishadi.

Tahlil va natijalar. Audiovizual texnologiyalarning jahon miqyosida kengayishi, o‘quvchilarning multimodal chet tilidagi muloqotda samarali ishtirok etish zarurati va rus o‘rta maktab o‘quvchilarining samarali audiovizual faoliyatga tayyorgarligi yetarli darajada emas. Ijtimoiy semiotika va muloqotda multimodallik sohasida xorijiy va mahalliy olimlarning mavjud ilmiy tadqiqotlari hamda chet tilida bunday muloqot sharoitida tinglashni o‘rgatish sohasidagi nazariy asoslar va amaliy yechimlar yetarli darajada rivojlanmagan⁴. Multimodal muloqotning tadqiqi til o‘rganish, tarjima, avtomatik tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Multimodal muloqotni tahlil qilish orqali verbal va neverbal muloqot vositalarining o‘zaro mutanosibliigi, uslubiy ma‘no qirralari ham o‘rganiladi va bu tilning multimodal modelini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Multimodal muloqotda harakatlar, imo-ishoralar muhim.

Onlayn muloqotda suhbatdoshimiz bilan bir-birimizni ko‘rmasdan turib matn orqali muloqot qilganimizda tabiiy ravishda o‘zimizni to‘ldirishga ehtiyoj sezamiz, imo-ishoralar bilan kodlangan ma‘lumotlarni ifodalash uchun qo‘shimcha materiallar pozitsiyasi (emojilar)dan foydalanamiz⁵.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar tili, ommaviy muloqot janrlari texnologik imkoniyatlar, ijtimoiy hamkorlik jarayonlari, ma‘daniy omillar vositasida shakllanadi. Internetning Web 2.0 deb ataluvchi ikkilamchi nutq janrlari (blog, forum, chat) kanonik janrlardan keng imkoniyatlari bilan farqlanadi.

Tadqiqotchilar yangi gibrid janrlarning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni bog‘laydilar:

- yuqori darajadagi interaktivlik, ya‘ni bir vaqtning o‘zida o‘z fikringizni bildirish va muloqot qilish, boshqa foydalanuvchilarning fikrini sinxron va asinxron tarzda bilish;
- adresatga aniq e‘tibor qaratish;
- kontekstuallik;

⁴ Данилин М.В. Методика обучения аудированию в условиях мультимодальной коммуникации с использованием аутентичных аудиовидеоматериалов. Фил. наук. док. дис...автореф. – Москва, 2023. – С. 3.

⁵ Hoffman T. Multimodal construction grammar: from multimodal constructions to multimodal constructions. – New York., 2020. – 43 p.

- bir nechta mualliflik;
- ko'p kanalli (muhokama qilinayotgan janrlar doirasida axborotni taqdim etishning matnli-audio-vizual shakli)⁶.

Xulosa va takliflar. Aytish kerakki, tarmoq tili normativ tildan juda farq qilishi, normativlikka beparvolik bilan qarashi, o'z uzuval normalarini o'rnatishi aniqlandi⁷. Ijtimoiy tarmoqlar tili faqat kommunikativlikka xizmat qilmasdan, balki ijtimoiy strategiyaga ham asoslanadi. Xabarlar qayerda va kimga qaratilganligiga ko'ra ham turli mazmunni ifodalashi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar qisqa vaqt oralig'ida ommaviy muloqot ko'rinishiga o'tishi mumkin. Shu sababli har qanday ko'rinishdagi matn shakllantirilayotganida shu jihatini ham hisobga olgan holatda lingvistik vositalardan, uslubdan foydalanish va matn semantikasini to'g'ri va turli salbiy hissiyotlardan holi tarzda shakllantirish lozim. Tadqiq qilishda esa faqat lingvistik elementlarni emas, balki auditoriya, platforma, foydalanuvchining shaxsiy maqsadlari kontekstida ham talqin qilinishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlar tilini umumiy qonun-qoidalar, mezonlar bilan chegaralab, barqarorlashtirib bo'lmaydi. Sababiki, bu til doimiy rivojlanish, o'zgarish, chatishish, yangilanish jarayonlarini boshdan kechirib turadi. Xo'sh, internet va ijtimoiy tarmoqlar tili ma'lum bir barqarorlikka ega bo'lmasa uning umumiy xususiyatlarini lingvistik, psixologik, huquqiy, siyosiy tomondan o'rganish nima beradi? Ijtimoiy tarmoqdagi nom, surat, iqtibos, imzo, post, sharhlar, uslub shaxs shaxsiyatini yaratadi va bu shaxsiyat turli huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olishda, neologizmlar, jargonlar, slanglar, uslubi va grammatik qurilishi tilshunoslikning boyishiga va taraqqiyotiga, siyosiy nizolarni aniqlash va oldini olish kabi bir qancha muhim masalalarga yechim topishga, tillarni o'rganishga, yangi sohalarni o'zlashtirishga, moliyaviy daromad olishga va sohalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiyatning barqaror emasligi ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik, psixologik, sotsiologik, huquqiy tadqiqotlar uchun asosiy tadqiqot obyekti bo'lishini ta'minlaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar muhim masalalar yechimiga xizmat qilish bilan bir qatorda, turli muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Soliyeva N.A. Internet lingvistikasi va yangi so'zlarning shakllanish jarayonlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 63 b.
2. Crystal, D. Internet linguistics: A student guide. – London: Routledge, 2011 – 179 p.
3. Goffman, E. The Presentation of Self in Everyday Life. Garden City. – New York: Doubleday, 1959. – 255 p.
4. Grant T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. – Birmingham: Linus, 2010. – 128 p.
5. Grosjean F. Life with Two Languages. – Cambridge, Mass. : Harvard University Press, 1982. – 370 p.
6. Kreuz R.J. Og'zaki istehzodan foydalanish: ishoralar va cheklovlar. – Nyu-Jersi: Lourens Erlbaum, 1996. – 126 p.
7. Rozina I.N. Pedagogik kompyuter vositachiligidagi aloqa: nazariya va amaliyot. – Moskva,

⁶ Горошко Е.И. Интернет-коммуникация: проблема жанра // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе. – Москва, 2006. №4. – С.344-357.

⁷ Голев.Н.Д. Актуальные проблемы юрислингвистической экспертизы // Проблемы юрислингвистической экспертизы: Межвузовский сборник научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С.8.

2005. – 152 b.

8. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011 – 360 p.

9. Xoffman T. Multimodall qurilish grammatikasi: multimodal konstruktsiyalardan multimodal konstruktsiyalarga qadar. – New York, 2020. – 43 b.

10. Алтухова Т.А., Бульдяева В.В., Бушев А.Б. Ижтимоий тармоқлар: комплекс лингвистик таҳлили: Монография. – Кемерово., 2021. – 430 с.